

## SADRI ZIYO VA UNING TAZKIRALARI

*Juraqulov Muhammadamin Shoahtamovich*

*Buxoro davlat universiteti “Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik” mutaxassisligi magistri*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Sadri Ziyoning “Tazkori ash’or” tazkisasi atroflicha yoritiladi. Asarda keltirilgan adiblarning qaysi adabiy muhitdan chiqishlari, adabiyotshunoslikdagi o’rni, shoirning uslubi tahrirga tortiladi. Shuni alohida qayd etish joizki, tazkiraning struktural holati boshqa tazkiralardan farqli o’laroq tasvirlab berilgan hamda Sadri Ziyoning boshqa tazkiralari haqida (“Tazkirat-ul humaqqo” (“Ahmaqlar tazkisasi”), “Tazkirat-ul vuzaro” (vazirlar tazkisasi), “Tazkirat-ul hukamo” (“Hokimlar tazkisasi”), “Tazkirat-ul xattotin” (“Xattotlar tazkisasi”)) ma’lumotlar keltirib o’tilgan.

**Kalit so'zlar:** Sadri Ziyoning tazkiranavislik, fors-tojik adabiyoti, tazkira shakli, Buxoro adabiy muhiti.

**Kirish.** Inson shaxsiyatining shakllanishi shaxsiy va ijtimoiy fazilatlarni egallash jarayoni bo’lib, u turli xil jarayonlar orqali amalga oshadi. Shaxsning shakllanishi va rivojlanishi jarayoni yashash davomida muntazam ravishda sodir bo’ladi va inson umri oxirigacha davom etadi.

Buxoroyi sharif bir necha yuz yillar davomida ilm beshigi va ta’lim markazlaridan biri bo’lgan. Xalq yashashi va insoniy fazilatlarning yuksalishida tarbiya va ta’lim asosiy omil hisoblanadi. Bu zamindan ko’plab olimlar yetishib chiqqan. Buxorodagi XIX asr oxiri XX asr boshlari ma’rifatparvar musulmon ruhoniylari va ziyolilari orasida madrasa va maktablar tizimida hamda islom diniga kirib qolgan bid’atlarni isloh qilish fikri paydo bo’la boshlaydi. Shunday islohot tarafdorlarini ma’rifatparvarlar, jadidchilar, ya’ni yangilik tarafdorlari deb atay boshladilar. Bejizga buyuk ma’rifatparvar Abdulla Avloniyning tarbiya haqida bu fikri mavjud emas: “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” Bugun har qachongidan ham bu fikrini yaxshi anglayapmiz va guvohi bo’lib turubmiz. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoroda ta’limga ba’zi hukmdorlar e’tibor qaratmadi. Buxoroda ananaviy ta’lim tizimi 2 bosqichdan iborat bo’lgan. Bu davrda maktab ta’limi o’qishning birinchi bosqichi bo’lib bolalarning xat savodini chiqarish, axloq va odob me’yorlarini o’rgatuvchi joy hisoblangan. Ta’limning ikkinchi bosqichi madrasa ta’limi bo’lib, talabalar aqoid, fiqh, kalom, adab kabi shar’iy va tabiiy bilimlarni o’rganardi. Afsuski, tabiiy fanlar XIX asr oxirlari va XX asr boshlariga kilib madrasadagi fanlar ro’yxatidan chiqarib tashlandi. Hisob, handasa, tarix, tabiiylik kabi fanlar tamom yo’qolib ketdi. Sadridin Ayniy xotiralarida yozishicha, maorif tizimi XVI asrda vujudga kelgan o’qitish tizimi bilan qolgan edi. Garchi Buxoro amirligida ta’lim sifati pasaygan bo’lsa-da, ko’plab shoir-u olimlar yetishib chiqqan, ma’rifat yo’lida ko’p ishlar qilingan.

**Asosiy qism.** Sharifjon Maxdum Sadri Ziyoning (1865-1932) ham ana shunday xususiyatlarga ega shaxslardandir. U ham bilim va idrok, mardlik, matonat va yuksak insoniy fazilatlarni otasi Abdushukur Oyatdan meros qilib olgan. Shuningdek, Buxoroning adabiy muhiti, madaniy ta’siri, boy adabiyoti, ijtimoiy ta’sir – ma’rifat va shaxsiy tajriba uning shaxsi shakllanishiga ta’sir ko’rsatgan, ta’sirchan va umuminsoniy shaxs bo’lishiga sabab bo’lgan boshqa omillar edi. Bu maqolada Sadri Ziyoning adabiy maktabi va Buxorodagi va maorifda tutgan o’rni haqida fikr yuritiladi.

Sharifjon Maxdum Sadri Ziyoning hijriy 1283-yilning 27-ramazonida, milodiy 1865-yilning 27-yanvarida Buxoroda tug’ilgan va 1350-yil hijriy oxirlarida, taxminan 1932-yil aprel oyining oxirlarida vafot

etgan. Asarlarida uning ismi asosan Mirzo Muhammad Sharif Sadr va taxallusi esa Ziyo yozilgan. Tarixiy manbalarda esa Muhammad Sharif Maxdum, Qozi Muhammad Sharif, Qozi Sharif Jon, Sharif Jan Qozi Sadr, Sovet davridagi rasmiy rus hujjatlarida Sharif Shakurov deb keltirilgan. Shakurovning familiyasi otasi Domla Abdul Shakur Sadr ismidan olingan u she'riyatda "Oyat" taxallusi bilan ijod qilingan. "Domla" so'zi Buxoro amirligida katta ulamo va fatvo birish huquqiga ega bo'lgan shaxs hisoblanardi. Ulamo farzandlarining nomi oxirida "maxdum" so'zi qo'shib yozilardi, bu holat XIX asrning oxirlari XX asrning boshlarida yetarli darajada qo'llanib kelgan. "Sadr" uchinchi ilmiy unvon bo'lib, eng yuqori olimlar unvoni hisoblangan. Sadri Ziyo ham otasi kabi yoshligidan yozuvchi va olim-u ulamolar bilan muloqotda bo'lgan. Abdushakuri Oyat hovlisida adabiy kecha tashkil qilinib shoirlar, olimlar, ulamolar, adabiyotshunoslar, latifago'ylar va fozillar she'ru adabdan bahs etardilar. Buxoro amirligida shu kabi adabiy va ma'rifiy davralar alohida ahamiyatga egadir. Bu mahfillarda nafaqat shoirlar-u olimlar, balki davlat arboblari ham qatnashardi. Jumladan, amirlikda bir qancha vazifada ishlab kelgan, xususan, katta qozi (qozikalon) lavozimida ishlagan Abdushakur Oyatning o'zi ham davlat arboblardan hisoblanardi. Sadri Ziyo o'z zamonasining muhim shaxslardan hisoblanib, nafaqat shoir, balki yozuvchi, xattot, davlat arbobidir. Muallifning bir qancha sohalarda muhim asarlari bo'lib, Buxoro va Varorud tarixiga oid bir qancha risolalar uning qalamiga mansubdir ulardan ba'zilari: "Zikri salotini mang'itiya", "Zikri saltanat va podshohii mir Olimxon", "Tarjimai holi Ostonaqul qushbegi", "Sababi inqilobi Buxoro", "Ro'znoma"dir. Ikkinchi guruhga kiradigan asarlari badiiy asarlar hisoblanib, ko'pincha bu asarlarda badiiylkga e'tibor qaratilgan.

Tazkiralalar ikki guruhga bo'linadi: a) umumiy tazkiralalar b) ixtisosiy tazkiralalar. Umumiy tazkiralarda bir necha asrda yashagan turli tarzda ijod qilingan shoirlar haqida ma'lumot beriladi. Ixtisosiy tazkiralalar esa muayyan davr shoirlarining hayoti va ijodi haqida ma'lumot beradi. Ixtisosiy tazkiralalar o'z navbatida uch guruhga bo'linadi: I) mahalliy tazkiralalar (bir mintaqa shoirlari haqida ma'lumot beradi). II) Mavzuiy tazkiralalar (bu turdagi tazkira ma'no va janir jihattan farq qiladi: masanaviy, hammosa...). III) Tabaqaviy tazkiralalar (kasb yoki vazifa egalari haqida yozilgan tazkira: vazrlar haqida tazkira, xattotlar haqidagi tazkiralalar).

#### **Sadri Ziyo tazkiralarning tuzilishi jihatidan tasnifi.**

<b>Tazkira tuzilishi</b>	<b>Mahalliy tazkiralalar</b>	<b>Mavzuiy tazkiralalar</b>	<b>Tabaqaviy tazkiralalar</b>
<b>Ixtisosiy tazkiralalar</b>	"Tazkori ash'or" ("Shoirlar tazkirasi"). Buxoro adabiy muhitida va tazkirachi bilan zamondosh shoirlar haqidagi tazkira.	"Tazkirat-ul humaqa" ("Ahmaqlar tazkirasi")	"Tazkirat-ul vuzaro" ("Vazirlar tazkirasi"), "Tazkirat-ul hukamo" ("Hokimlar tazkirasi"), "Tazkirat-ul xattotin" ("Xattotlar tazkirasi")

Dastavval, Sadri Ziyo tazkiralarni ikki guruhga ajratamiz: a) umumiy tazkiralalar, b) ixtisosiy tazkiralarning mahalliy va tabaqaviy tazkiralari. Yozuvchining tazkiralari ixtisosiy tazkiralalar safiga kiradi. Tabaqaviy tazkiralalar "Tazkirat-ul vuzaro" ("Vazirlar tazkirasi"), "Tazkirat-ul hukamo" ("Hokimlar tazkirasi"), "Tazkirat-ul xattotin" ("Xattotlar tazkirasi"). Yozuvchining mahalliy tazkirasi "Tazkori ash'or" ("Shoirlar tazkirasi") dir. Bu tazkiralarda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, muallif san'at, siyosat, adabiyotga chuqur tafakkur ila qaragan. Sadri Ziyo hayot faoliyatini o'rgangan va baho bergan shaxs Sadridin Ayniydir. Sadridin Ayniyning bir qancha asarlarida Sadri Ziyo haqida muhim ma'lumotlar berilgan. Rasul Hodizoda Sadri Ziyo haqida muhim va kerakli tadqiqot olib borgan shaxs hisoblanadi. Adabiyotshunoslar va tilshunoslar tomonidan yozuvchining asarlari o'rganilgan. Tojikistonlik adabiyotshunos olim Sahobiddin Siddiqiy o'z umrining bir qismini Sadri Ziyo asarlarini o'rganish va tatbiq qilish uchun sarf qildi. Birinchi bo'lib "Tazkori ash'or" asarini o'rganib 1962-yil nomzodlik ishi yoqlagan va shu asarni ilmiy tanqidiy matnini yaratgan.

Sadri Ziyo tazkiranavislik an'anasini har tomonlama takomillashtirgan. Sahobiddin Siddiqiy: "Yozuvchining tazkiranavisligi boshqa tazkirachilardan bir necha farqlari bilan ajralib turadi",- deb ma'lumot beradi. Yozuvchi bir necha tazkiralalar muallifi hisoblanadi. Muallifning tazkiralarda

voqealar ketma-ketlikda bayon qilingan hamda asar nazmiy shaklda ifodalangan. Kasb egalari yozuvchi diqqatini xattotlik yoki vazirlik sifatleri bilan o'ziga tortgan. Shuning uchun Sadri Ziy o shaxslarni shuhrat qozongan kasb- kori bilan tavsiflaydi. Ikkinchi guruhga kiradigan tazkiralarni muallifning o'z zamonasida yashab ijod qilgan shoirlar haqidadir. Sadri Ziy o tazkiralari o'tgan zamonni o'z zamonasi bilan solishtirgan va har davrning taraqqiyoti, tanazzulini sabablari bilan ko'rsatgan.

Sadri Ziyoning tazkira asarlari ichida eng muhimi "Tazkori ash'or"dir. Ushbu tazkira muallif tomonidan bir necha marta tahrirlarga ega va uning birinchi tahriri 1322-1324 hijriy qamarida yakunlangan, bu milodiy 1905-1907- yillarga to'g'ri keladi. Ammo muallifning bu tahriri bizgacha yetib kelmagan. Sadridin Ayniy tomonidan 1924-1925- yil yozilgan Sadri Ziyoning qisqacha tarjimai holi haqida shunday satrlar bor: "Sadri Ziy o "Tazkori ash'or" tazkirasida 130 ta iste'dodli shoirlarning hayoti, faoliyati haqida ma'lumot berilgan". Bu so'zdan shunday xulosa chiqarish mumkinki, Sadridin Ayniy "Tazkori ash'or"ni ikkinchi tahriri haqida ma'lumot bergan. Bizgacha yetib kelgan "Tazkori ash'or" nusxalarida 200 yoki 130 ta shoir haqida emas, faqat Buxoro shoirlari haqida ma'lumot berilgan. Sahobiddin Siddiqiy o'rganish va tadqiq qilish jarayonida shuni aniqladiki, tazkirada 49 shoir haqida ma'lumot berilgan. Tazkiraning umumiy hajmi 1444 baytdan iborat va shoirlar ijodidan keltirilgan misollar 2616 baytni tashkil qiladi. Buxoroda XIX asr oxirlari XX asr boshlarida yettita tazkira yaratilgan. Ular quyidagilar: 1.Qori Rahmatulloh Vozeh "Tuhfat-ul ahhob fi tazkirat-ul ashob" (Yaratilishi 1288 h.q=1871 m.), 2.Hoji Azimi Shar'iy "Tazkirat-u shuaro", 3.Mir Siddiqi Hashmat tazkirasini "Tazkirat-u shuaro" (yaratilishi h.q 1321=1904), 4."Afzal-ut tazkor fi zikur-ush shuaro val ash'or" (yaratilishi h.q 1321=1905) muallifi Afzal maxdum Pirmastiy, 5.Abdullohxojayi Abdiy tazkirasini "Tazkirat-ush shuaro mutaaxxirini Buxoro" (yaratilishi h.q 1320-1904), 6.Hoji Ne'matullohi Muhtaram tazkirasini "Tazkirat-ush shuaro", 7. Sadri Ziy o tazkirasini "Tazkori ash'or". Yuqorida keltirilgan har bir tazkira XIX asr va XX asrning muhim va dolzarb xazinalaridandir. "Tazkori ash'or"ning ilk tadqiqotchisi Rasul Hadizodadir. Uning aytishicha:"Sadri Ziyoning maqsadi faqat o'z davri shoirlari va ularning ijodiyotini zikr qilish bo'lmagan. Agar shoirning maqsadi shu bo'lganida edi, bu tahrirlar natijasida shoirlar soni kam bo'lmasdan aks holda ortardi".

Sadri Ziy o 1918-yil qamoqqa olinganida uning qo'lyozmalari, jumladan, "Tazkori ash'or" ham jaholatpeshalar tomonidan yoqilgan edi. "Tazkori ash'or" qayta tahrirlanib, barcha shoirlar emas, balki ularning ba'zilarini zikr qilib ijodidan misollar keltirilgan"<sup>1</sup>. Muallif asarni tahrir qilish bobida shunday deydi:

Namudam dar in nusxa man iltizom,  
Ki az shoirone, ki dorand nom,  
Dar in sheva mashhuri har kishvarand,  
Dar in pesha az digaron bartarand,  
Namoyam zi shoirfanon intixob,  
Kunam zikrashon zinati in kitob,  
Az on softab'on, ki xud mohirand,  
Valekin rahi she'ri nav bisparand,  
Ba she'ri balandi ba fikri raso,  
Bigashtand maqbuli tab'I rizo,  
Nakardam nazarshon ba xurdii sol,  
Ki manzuri man bud husni maqol.

---

<sup>1</sup> Rasul Hadizoda "Sadri Ziy o" Dushanbe 1992-yil

Bu muqaddima tazkiraning uchunchi tahriri bo'lib bu nusxa bizgacha yetib kelgan. Agar birinchi va ikkinchi tahrir 130-200 kishini qamrab olgan bo'lsa, muallif bunday muqaddima yozmas edi. Sadri Ziyo nazarida "boshqalardan ustun", "ijodga mohir", "mazmuni balan va ravon she'r va yuqori fikrli"largina, yoshidan qat'iy nazar "erkin she'r" ijod qila oladigan shoirlar tazkirada zikr qilingan. Shu tariqa Sadri Ziyo nazarida har bir shoir, yozuvchi emas, balki she'riyati, bir necha jihati bilan ajralib turadigan, o'zining bir qancha fazilatlarini bilan adabiyot yaratgan, adabiyotga salmoqli hissa qo'shgan shaxslar tazkirada vashf qilingan. Sadri Ziyo ko'rsatgan adabiy yo'nalishlar va unga qanday baho berishni ko'zdan kechirishdan oldin bir jihatga e'tibor qaratmoqchimiz. Rasul Hodizoda tadqiqotida "Tazkori ash'or"ning ahamiyati va mavqeyi shunday namoyon bo'ldiki, muallif zamoninig peshqadam yozuvchilari haqida xabar bergan. Garchi ular hukmdorlar siyosatidan norizo bo'lib, unga qarshi ziddiyat ko'rsatib saroydan chetlashtirgan bo'lsalar-da, ularni borligicha tavsiflangan. Shahobiddin Siddiqiy shunday ma'lumot bergan: "Asardagi 49 nafar zikr qilinganlarning yarmidan ortig'i ma'rifatparvarlar-u shoirlardir".

Tazkirada ba'zi shoirlarning she'rlari kam bo'lsa ham, ularning falsafiy qarashlari haqida tazkirachi yuqori baho bergan.

Masalan, A. Donishning she'riy ijodi kam bo'lsa ham, ma'rifatparvarlik va islohotchilik g'oyalarni nasriy ijodida bayon qilgani uchun Sadri Ziyo tomonidan tavsiflab berilgan. Nafaqat, A. Donish balki bu kabi shoirlar tazkirada bir necha kishini tashkil qiladi. Mufti Ikrom (S. Ayniy asarlarida domullo Ikromcha taxallusi bilan zikr qilingan), Sadri Sarir, Gulshaniy Muhtaram, Lutfiy, Ofarin va shu kabi bir necha shoirlar shular jumlasidandir. Tazkirani o'rganish natijasida shu narsaga amin bo'ldikki, muallifning bitta maqsadi ma'rifatparvar va islohotchilarni qo'llab-quvvatlash va xalqqa tanishtirish bo'lgan. Asarning har bobida boshqa tazkiralari kabi bir shoir haqida ma'lumot berilgan. Shuni ham aytib o'tish joizki, asarda keltirilgan har bir bob boshqa tazkiralari bobidan farqi shundaki, shoir ko'pincha ijodkorlarning xususiyatini tavsiflangan va shoirlar haqida ba'zi davlat arboblari tomonidan tarqatilgan tuhmatlarni inkor qilgan. Tazkirachining qay darajada shoirlarni himoya qilganligini aniqlash maqsadida bir misol keltiraman. Tavsif hoji, mullo Ikrom (Ikromcha) haqida aytilgan:

Faqohatshiore zi ahli Buxor,  
Fazilatdisoroye zi xayli kibor.  
Azizulvujude ba izzu sharaf,  
Zulehtirome adimuttaraf.  
Diyonatqarin orifi pokdin,  
Sharafhamnishin olimi rostbin...  
Ulume ki mashhur andar Buxor.  
Funune, ki ma'ruf dar har diyor,  
Buvad zoti olishro barkamol.  
Naboshad kasero bado' qilu qol...  
Ba qadre ki fazlu kamolash fuzud,  
Ba oliy manosib taraqqiy namud.  
Ba iftovu tadrisi Miri Arab  
Muazziz shud on fozili boadab.  
Az o' gasht tasnifi chandin kitob  
Ba ahdi Ahadxoni molikrikob... .  
Ki as'hobi donish hama ittifoq,  
Namudand bar xubiash benifoq.

Mana shu baytlardan xulosa chiqarish mumkinki, Ikrom haqidagi barcha bo‘htonlarni rad qilgan. Tazkiradagi keltiradigan ma’lumotlarga qaraydigan bo‘lsak, mullo Ikromning bosmadan chiqqan asari “Iqozunnoimin va e’molujohilin” ni kutubxonalardan olib yoqib yuborilgan va afsuski, bizgacha yetib kelmagan. Muallif zamon ziddiyatlariga qaramasdan ma’rifatparvarlar haqida odilona va xolisona baho bergan, Mullo Ikromni din sohibi va ma’rifatparvar shaxs sifatida zikr qilgan. Shu ham muhimki, tazkirachi amir Ahodxon nomini oxiridagi baytlarda zikr qilingan. Bayt mazmuni shundan iboratki, Sadri Ziyo amirga xitob qilib aytadiki, mullo Ikromni o‘zing sa’y-harakating ila mufti va Mir Arab madrasasining mudarrisi qilding, lekin hozir kilib johillar-u xoinlar so‘ziga quloq solib uning qadrini bilmay qo‘yding. Muallif nafaqat shoirlar haqida ma’lumot bergan, balki ularni himoya qilgan. Albatta, “Tazkori ash’or” boshqa tazkiralardan ko‘p jihatlari bilan farq qiladi. Farqlarning biri shoirlarni haq huquqini darbor ahlidan so‘ragan. Tadqiqot natijasida shu narsaga amin bo‘ldikki, garchi muallif jaholatpeshalarning tuhmatlarini aytib o‘tgan bo‘lsa ham, lekin nima deb tuhmat qilinganligini aytib o‘tmagan. Johillarning ma’rifatparvarlar bilan qarshiliklari Sadri Ziyoning boshqa asarlarida ham zikr qilingan. Tazkiraning boshqa tazkiralardan asosiy farqi shundaki, ma’rifatparvarlarni asosiy syujet sifatida ishlatgan va qarshiliklar maydonida ma’rifatparvarlarni ko‘rsatib bergan. Yuqorida zikr qilganimizday, Sadri Ziyoning kutubxonasi yoqilgan payt dushmanlarning asosiy maqsadi “Tazkori ash’or”ni yo‘q qilish bo‘lgan. Muhammadjon Shakuriy Buxoroiy shunday degan: “XIX asrning ikkinchi yarimidan boshlab ma’rifatparvar g‘oyalari bo‘lgan asarlarni xalqqa yetkazmasligi uchun yo‘q qilingan”<sup>2</sup>. Sadri Ziyoz tazkiralarinig adabiyotga va o‘zidan keyingi tazkirachilargayam ta’siri yaqqol ko‘rinadi. Sadrididdin Ayniy tazkirasida shu kabi tavsiflash va tahrirlash g‘oyalar o‘z aksini topadi. Buxoro amirligida jadidchilik g‘oyalarni asarlarida ko‘rsatgan shaxs Ahmad Donish bo‘lsa, shu g‘oyalarni tashviq va talqin qilgan shaxslardan biri Sadri Ziyoz bo‘lgan. Ahmad Donishning “Navodir-ul vaqoeq” asarini 1888 yo 1889 yillar Sadri Ziyoz adabiy davrasida tarbiya olingan shaxs Mirzo Abdulvohidi Munzimga beradi va qayta ko‘chirishga buyuradi. Ayniy, Munzim, Hayrat Sadri Ziyoz farmoni bilan Munzim ko‘chirgan “Navodir-ul vaqoeq” asarini Ahmad Donish o‘zi yozgan qo‘lyozmani solishtirgan. Albatta, bunday ishlar yashirin holatda qilingan. Yuqoridagi keltirilgan Sadri Ziyoz adabiy kechalar “adabiyot maktabining davrasi” bo‘lib qoldi. Har holda, 20-asrning dastlabki yigirma yilligida “yangi she’riyat”ning eng ko‘zga ko‘ringan yozuvchisi bo‘lgan Sadrididdin Ayniy, Sadri Ziyoz adabiyot maktabining davrasi”dan tarbiya ko‘rgan. Ustoz Ayniy o‘zining “Estaliklar”ida Sadri Ziyoz hovlisida o‘tkaziladigan adabiy davralarni ahamiyati haqida shunday yozadi: “Ibtidoiy, ammo muhim adabiy materiallarimni o‘sha hovlidan yig‘ganman” (7-10). Shuning uchun Ayniy Sadri Ziyozni “birinchi ruhiy ustoz” deb atagan. Sharq madaniyati va ma’naviyatining markazi Buxoro shahri bo‘lgan. Somonilar davridan boshlab xattotlik, kitobchilik va kitobdorlik taraqqiy topgan sultoniy va shaxsiy kutubxonalar bo‘lgan. Bu holat XIX asrdan boshlab XX asr boshlarigacha o‘z tizimini yo‘qotmagan. Bu so‘zlarimizga Sadri Ziyoz kutubxonasi misol bo‘la oladi.

**XULOSA.** Buxoro san’at muzeyida saqlanib kelayotgan asarlarni o‘rganish zamon talabi uchun muhim masala hisoblanadi. Buxoro tarixi va adabiyoti nafaqat adabiyotimiz va mamlakatimiz tarixi, balki O‘rta Osiyo tarixi va adabiyoti hisoblanadi. Maqolaning tadqiqida Sadri Ziyoz hayoti va faoliyati hamda Movarounnahr adabiy muhitida tazkiranavislikda tutgan o‘rni inobatga olingan. Yuqoridagi zikr qilingan tazkiraloz Buxoroning adabiy muhitida muhim o‘ringa ega. Tadqiqotlar natijasida shu narsaga sobit bo‘ldikki, XIX asrdan boshlab to XX asr oxirigacha Buxoro amirligida ikki yuzdan ortiq tazkira asarlar yaratilgan. Agar tazkiralarni davr jihatdan solishtiradigan bo‘lsak, XIX asrdan oldin yaratilgan tazkiralarda zikr qilingan shoirlar tazkirachi yashagan zamonidan yillar oldin yashab ijod qilgan, tazkira muallifi esa shoir hayot va faoliyatini o‘rganish uchun uning ijodini o‘rgangan va tazkirasida tavsiflagan. XIX asrda yaratilgan tazkiralarda esa tazkirachi ham shoir ijodi, ham o‘zi bilan suhbatda bo‘lgan. Tazkiralarning ilmiy ahamiyati shundaki, ularda shoir-u ulamolar tavsiflangan.

---

<sup>2</sup> Muhammadjon Shakuriy “Sadri Buxoro”.Dushanbe\_2004

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Sharifjan Maxdum Sadri Ziya'. Tazkori ash'ar. /Musahhah S. Sadiki. Ba kushishi Muxammadjan Shukurov. - Tihron: Surush, 1380 (2002).
2. Sharifjon Maxdum (Sadri Ziyoy). Tarix. / O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi. inv. №2241, 104-106 vv.
3. Sadri Ziyoy. Madrasaxo-yi shahri Buxoro. / O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi. №-2493.
4. Sadri Ziyoy. Bobi xavossi mevachoti ma'mulai bilodi Movarounnahr. //Qo'lyozma. O'zFA ShI №2193. -139 a v.
5. Sadridin Ayniy. Esdaliklar. 6-jild. -Toshkent, 1965. -B. 10.
6. Shukuriy M. Sadri Buxoro. -S. 108.
7. Ayni S. Namunai adabiyoti tochik. -Dushanbe: Adib, 2010. -S. 274.
8. Abdi, Abdulloxocha. Tazkirat-ush-shu'aro. Bo tasxehi Asgari Chonfido.- Dushanbe: Donish, 1983.
9. Vozeh, Qori Rahmatulloh. Tuhfat-ul-ahbob. Matni intiqodī bo muqaddima va tashexi Asgar chonfido. Dushanbe: Donish, 1977.
10. Hodizoda, Rasul. Adabiyoti tojik dar nimai duyumi asri XIX. - Dushanbe, 1968.
11. Shakurii Buxoroy M. Sadri Buxoro. Chopi duvum. Bo tasheh, takmil va ilovaho. Dushanbe: Devashtich, 2005.
12. Sahobiddin Siddiqiy. Sadri Ziyoy va Tazkirahoi o'. Zeri nazari T. N. Ne'matzoda, virostonon: M. Shakuriy va M. Xochayeva.-Dushanbe, 2010.